Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktyabrdagi 181-son buyrug'iga 1-ilova "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi" Nizomi qabul qilindi. Ushbu nizomga ko'ra moliyaviy hisobotlarning mazmuni va tarkibi BHMS hamda MHXSga asosan tuziladigan moliyaviy hisobotlarning shakllari aniq belgilab berilgan. Mazkur nizomda BHMS va MHXSga asosan tuzilgan yillik moliyaviy hisobot shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi, ya'ni:

BHMSga asosan tuzilgan yillik moliyaviy hisobot shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mazkur nizomning 1-ilovasiga muvofiq buxgalteriya balans;
- mazkur nizomning 2-ilovasiga muvofiq moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot;
- mazkur nizomning 3-ilovasiga muvofiq xususiy kapital to'g'risidagi hisobot;
- mazkur nizomning 4-ilovasiga muvofiq pul oqimlari to'g'risida hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar (moliyaviy hisobotga izohlar).



MHXSga asosan tuzilgan yillik moliyaviy hisobot shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi: mazkur nizomning 5-ilovasiga muvofiq moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot; mazkur nizomning 6-ilovasiga muvofiq foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;

mazkur nizomning 7-ilovasiga muvofiq xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot; mazkur nizomning 8-ilovasiga muvofiq pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot (bilvosita usul); ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma'lumotlaridan iborat izohlar (moliyaviy hisobotga izohlar)¹.

Buxgalteriya hisobi sub'ektlari MHXS asosida tuzilgan yillik moliyaviy hisobot shakllarini keyingi yilning 1 may sanasidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

MHHS talablari asosida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni shakllantirishga qo'yilgan talablar asosida tuzish, uni taqdim etishni ko'zda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, korxonada tashqi investirlarni jalb etish imkoniyatini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

MHXS asosida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar hamda mavzu yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olimlardan M.R.Metyus, P.Aynsvort, K.D.Larson, R.Libbi, R.H.Hermanson, R.Entoni, B.Nidlz, F.Vud va boshqa olimlar² moliyaviy hisobotning nazariy konseptual asoslari hamda aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning metodologik masalalarini; V.P.Astaxov, V.Kachalin, M.I.Kuter, V.F.Paliy, Ya.V.Sokolov, V.I.Tkach, V.G.Getman, T.Yu.Drujilovskaya kabi olimlar³ o'z ishlarida MHXSlarini o'z mamlakatlarida qo'llash masalalarini tadqiq etganlar.

Keyingi yillarda respublikamizda ham moliyaviy hisobot masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi hamda ilmiy maqolalar, monografiyalar va darsliklar chop qilindi. Mamlakatimizda ko'plab olimlar bugungi kunda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish zarurligini asoslab unga o'tish yo'llarini belgilab bermoqda hamda uni alohida fan kursi sifatida o'qitishni taklif etmoqda, jumladan, J.Qurbanbayev, S.Djumanov⁴, K.B.Urazov,⁵ S.N.Tashnazarov⁶.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ishlarida uzoq muddatli aktivlar, tovar-moddiy boyliklar, majburiyatlar, daromad va xarajatlarni tan olish, baholash va moliyaviy hisobotda aks ettirishning metodologik masalalari tadqiq etilgan. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish va yuritish tartibi bo'yicha Respublikamiz olimlaridan: Z.N.Qurbanov va tadqiqotchi F.AAkramovlar⁷, M.Marpatov⁸ o'z maqolasida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalarini yoritgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish va uni tahlil etishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, buxgalteriya hisobi, statistika, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning mustaqil yuksalishi va rivojlanishi mobaynida keyingi yillarda ulkan yutuqlar qo'lga kiritilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Shuningdek, buxgalteriya hisobini rivojlantirish va jahon bozoriga kirib borishni jadallashtirish borasida bir qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, korxonalar va tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirishda, umuman, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda moliyaviy hisobotning o'rni katta ahamiyatga ega. Shu borada, Prezidentimiz tomonidan 2020-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son Qarori

2 O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktyabrdagi 181-son buyrug'iga 1-ilova "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi" Nizom

3 Ainsworth, Penne. Introduction to Accounting: An integrated Approach /Penne Ainsworth, Dan Deines, R. David Plumlee, Cathy Xanthaky Larson. Irwin, Printed in USA, 2005. 425 r.;

4 I.Kuter. Теория и принципы бухгалтерского учета: Учеб. Пособие.—М.: финансы и статистика, экспертное бюро, 2000.—544 s
5 J.Qurbanbaev, S.Djumanov. Buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazish yo'llari.// Moliya. 2016 y. №1, 99-104-b.;

6 K.B.Urazov. Moliyaviy hisobot: milliy va xalqaro standartlar muvofiqligi yo'lida. // Bozor, pul va kredit J. —2013. —№4. —57-61-b.

7 S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. T.: "Navro'z" nashriyoti, 2016 y. 31-47-b.

8 Z.N.Qurbanov, F.A.Akramov. Moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarb masalalari.// Biznes-ekspert, № 4,2015



yil 24-fevralda “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori qabul qilinishi va unga binoan, 18 ta banddan iborat “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangani respublikamizda buxgalteriya hisobi yo‘nalishida jiddiy o‘zgarishlar bo‘lishidan dalolat beradi. Shunday ekan, biz jahon bozoriga kirishga, mamlakatimizda qulay investitsion muhitni yaratishga va iqtisodiyotimizga chet el investitsiyalarini jalb etilishiga hamda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etilishiga intilayotgan ekanmiz, olib borayotgan faoliyatimiz ham xalqaro standartlarga mos bo‘lishi zarur. Bunda, moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o‘tishni tezlashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlari kengayadi. Bu borada, buxgalteriya hisobi va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlari bo‘yicha tayyorlash hamda MHXSlar asosida moliyaviy hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunga moliyaviy hisobotni MHXSlari asosida transformasiyalash orqali erishish mumkin.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun hujjatlar to‘plami, moliyaviy hisobotlarning tuzilishini tartibga soluvchi reglament bo‘lib, tashqi foydalanuvchilar tomonidan biror-bir tashkilotga nisbatan iqtisodiy qaror qabul qilish uchun foydalaniladi. Ya‘ni, oddiy misol tariqasida keltirsak, bu xorijiy investorlarni mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning (kompaniya, korporatsiya, aksiyadorlik jamiyatlari) aksiyalari, qimmatli qog‘ozlari va boshqa turdagi investitsiya jalb qilishi mumkin bo‘lgan moddiy boyliklarning istiqbolda o‘sishi yoki pasayishini tahlil qilishi uchun zarur axborotlar bilan ta‘minlash mumkin bo‘ladi.

Biz uchun afzalligi esa mamlakatimizdagi yirik korxonalariga xalqaro moliya bozorlarida ishtirok etish imkoni yaratiladi. Masalan, respublikamizdagi yirik korxonalarining chet el fuqarolari yoki yuridik shaxslari tomonidan ularning aksiya va obligatsiyalarini sotib olishi evaziga ushbu korxonalariga investitsiya kiritish, pirovardida korxonani rivojlantirish natijasida davlat budjetiga tushumning oshishiga olib keladi.

Dastavval, transformasiya so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga to‘xtalib o‘taylik. **Transformasiya** (lag. Transformatio – o‘zgartirish, qayta tashkil etish) 1) struktura, shakl va uslublarini qayta tashkil etish, faoliyatning maqsadli yo‘nalishini o‘zgartirish; 2) aynaltirishning bitta usullaridan biri, xalqaro huquq normalarini ichki davlat huquqi normalariga qayta tashkil qilish ma‘nolarini anglatadi.⁹

Demak, bizning fikrimizcha buxgalteriya hisobida transformasiya mamlakatimizda amal qilingan qonunchilikka muvofiq hisob tizimidagi qoidalar, prinsiplar, usul va uslublarni hamda axborotlarni boshqa mamlakat yoki xalqaro qoidalariga muvofiqlashtirgan holda aylantirishga, ya‘ni yangi ma‘no kashf etishga aytiladi.

Transformasiya qoidalarini belgilaydigan maxsus MHXS yo‘q. Lekin, 1-son MHXS “MHXSlarini birinchi marta qo‘llash” standarti qoidalari bajarilishi talab etiladi.

Moliyaviy hisobotning transformasiyasini ta‘riflashda uning qaysi sanadagi holat bo‘yicha o‘tkazilishi, uning asosiy mazmuni milliy standartlar asosida tuzilgan hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotga o‘tkazishga qaratilganligi, transformasiya jarayonida MHXSlariga muvofiq holatda qayta guruhlashtirish, qayta tan olish, qayta baholash, to‘g‘irlashlar kiritish asosida xalqaro talablarga javob beradigan axborotlarni shakllantiradigan yangi tizimga ag‘darish va qayta tashkil qilish jarayoni ekanligiga alohida urg‘u berish lozim, deb o‘ylaymiz. Moliyaviy hisobot bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida moliyaviy hisobot transformasiyasiga quyidagicha ta‘rifni keltiramiz:

Moliyaviy hisobot transformasiyasi bu - hisobot sanasi holati bo‘yicha buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan hisobot komponentlari moddalarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qoidalariga muvofiq holda qayta guruhlashtirish, ularning moddalarini qayta tan olish, qayta baholash, tuzatishlar kiritish va qayta ochiqlashlar asosida MHXSlari hisobotlari axborotlarining yangi tizimiga ag‘darish va qayta tashkil qilish jarayonidir.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) qo‘llanilishi majburiy xususiyatdagi hujjat emas, u tavsiyanoma xarakteriga ega. Unda milliy standartlaridagi kabi korxonalar taqdim etishi shart bo‘lgan moliyaviy hisobot shakllarini belgilamaydi. MHXSlari moliyaviy hisobotning asosiy komponentlari va ularda aks ettiriladigan minimal axborotlar tarkibini belgilaydi. MHXSlarini qo‘llash kompaniyaning mutloq vakolatidagi masaladir.

MHXSlariga o‘tish yoki BHMSlari asosida tuzilgan MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- kompaniya faoliyati natijalarining shaffofligini oshiradi;
- axborot foydalanuvchilarda bitta kompaniya doirasida moliyaviy ko‘rsatkichlarni davrlar bo‘yicha hamda bir nechta xil kompaniyalar bo‘yicha esa taalluqli ko‘rsatkichlarni bir-biriga solishtirib tahlil o‘tkazish imkoniyati tug‘iladi;
- kreditorlar, aksiyadorlar, kredit beruvchi tashkilotlarda kompaniyaga ishonch oshadi va yuqori ishonch bilan kompaniya faoliyatiga pul qo‘yadi, kompaniyaning kredit olish imkoniyati kengayadi;

⁹ M.Marpatov. Buxgalteriya balansi – moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot. //Bozor, pul va kredit J. -2016.-№11.-B. 20-24.




- xorijiy investisiyalarni jalb qilish va xorijiy investorlar bilan hamkorlik yuksaladi;
- dunyo bozorlariga, jumladan xom-ashyo, valyuta, mehnat birjalari, xalqaro kapital bozoriga chiqish imkoniyatlari tug'iladi;
- kompaniya menejerlariga boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun ishonchli, ob'ektiv, uyg'un hamda o'z vaqtida tizimlashgan moliyaviy axborotlarni olish imkoniyatlari yuzaga keladi;
- kompaniya faoliyatini budjetlashtirish, rejalashtirish va strategik rivojlanishini baholashda zarur axborotlar ta'min etiladi;
- kompaniya boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, kompaniya raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sifatini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirishga erishiladi;
- kompaniyalarda korrupsiya elementlari, suiste'mollik qilish, soliq ob'yektlarini yashirish, talon-taroj qilish, mahalliychilik, xo'jasizlik, bankrotlik holatlari barham topadi;
- mehnatni rag'batlantirish tizimi tubdan yaxshilanadi, moddiy manfaatdorlik oshadi;
- kuchli nazorat tizimi o'rnatiladi. Ma'naviy muhit barqarorlashadi. Xodimlarda ishiga, kompaniyasiga va vataniga sodiqlik xislatlari bir-biriga uyg'unlashadi.
- xodimlarda o'z ustida ishlash va malakasini muntazam oshirish imkoniyatlari tug'iladi. bu esa xodimlarning professionallikka qiziqishini va harakatini kuchayadi.

MHXSlariga istalgan paytda, tayyorgarliksiz, to'g'ridan-to'g'ri o'tib bo'lmaydi. Agarda tayyorgarliksiz moliyaviy hisobot MHXSlar bo'yicha transformasiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, MHXSlarni birinchi marta qo'llashda yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni transformasiya qilishdan oldin muhit, shart-sharoit va ma'lum tayyorganlik ishlari olib borilishi shart. Biz bu omillarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- mamlakatda moliya, pul-kredit, soliq, mehnat qonunchiligi dunyo standartlariga uyg'un bo'lishi kerak. Milliy valyutaning erkin konvertatsiyalanishiga erishish kerak;
- mamlakat iqtisodiyotida yuqori inflyatsiya darajasi bo'lmasligi kerak;
- O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari tizimi imkon qadar MHXSlariga uyg'un bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Agar o'rtada tafovut katta bo'lsa transformasiya jarayoni qiyinlashdi, transformasiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi;
- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishda me'yoriy-huquqiy hujjat faqat "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va buxgalteriya hisobi standartlari bo'lishi kerak. Nizomlar, yo'riqnomalar va qoidalarni ham bosqichma-bosqich standartlarga aylantirishimiz kerak;
- iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar, budjet tizimi, bank tizimlari va jamoat fondlarida (foyda olishni maqsad qilib qo'yishi va qo'ymasligidan qat'iy nazar) buxgalteriya hisobi bo'yicha alohida standartlarni bo'lishini ko'zda tutmasdan, balki yagona standartlar tizimini yaratishimiz kerak, qaysiki undagi qoidalar barcha turdagi kompaniya va tashkilotlarga bir xil mazmunda qo'llanilishiga erishishimiz kerak;
- moliyaviy hisobotni taqdim etish valyutasini xalqaro standartlarga muvofiq erkin ravishda belgilash tartibiga o'tish imkoniyatlari yaratilishi kerak;
- mamlakatda professional buxgalterlar instituti tashkil etish, uning vakolati doirasida sertifikatli buxgalterlar va auditorlarning professional malakasini oshirish, ACCA, SAR va CIPA sertifikatlarining keng joriy qilinishini kengaytirish kerak.
- buxgalterlarni chet mamlakatda malaka oshirishini, chet tillarini o'rganishi, amaliyotchi buxgalterlarda buxgalteriya hisobi bo'yicha xalqaro dasturlarda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish lozim;
- kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish kerak;
- buxgalterlarni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish, ularning etika qoidalariga rioya qilishini ta'minlash;
- kompaniyalarda hisob siyosatini mukammallashtirish, uni moliyaviy hisobot prinsiplariga to'liq rioya qilgan holda tuzilishi hamda chinakkam hisob loyihasi bo'lishi, shuningdek, kompaniyada xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqishga erishish;
- kompaniyada buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni maxsus dasturlar asosida yuritilishi ta'minlash va boshqa bir qator ishlarni amalga oshirish lozim.
- O'zbekiston Respublikasidagi faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari, boshqa xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun va BHMSlariga muvofiq moliyaviy hisobotni tuzadilar. Yuqoridagi imkoniyatlarga ega bo'lish maqsadida kompaniya tomonidan moliyaviy hisobotni MHXSlari asosida tuzish va taqdim qilishi talab etiladi. Xo'sh, shunday katta imkoniyatlarni ochib beradigan hamda kompaniyaning shaffofligini ta'minlaydigan MHXSlari asosida moliyaviy hisobotni tuzishning ikkita tan olingan yo'li bor:




- Birinchi yo'li, BHMSlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni MHXSlari asosida transformasiya qilish (1-rasm).¹⁰



1-rasm. Moliyaviy hisobot transformasiya bosqichlari¹¹.

Ikkinchi yo'li, milliy hisob tizimi bilan yonma-yan MHXSlariga muvofiq parallel hisob tizimini yuritish (2-rasm).



2-rasm Parallel hisob tizimi¹²

10 dic.academic.ru/dic.nsf/dic_economic_law/16427/TRANSFORMATSIYa

11 Muallif tomonidan tuzilgan.

12 Muallif tomonidan tuzilgan.



Ikkala yo'lda ham bitta talab mavjud, ya'ni BHMSlari va MHXSlarini chuqur bilish, ularni qo'llay olishda amaliy kompetensiyaga ega bo'lish.

Birinchi yo'l eng ko'p qo'llaniladigan, kam chiqimli va nisbatan murakkablik darajasi baland emas. Shuni ta'kidlash lozimki, moliyaviy hisobot transformasiyasining tartib va qoidalarini belgilaydigan MHXSlari mavjud emas. Shu bois, har bir korxonada o'zining hisob siyosatida transformasiya asoslarini mustaqil ishlab chiqishi lozim. Ushbu maqsadida transformasiyaning umumiy yondashuvlarini ishlab chiqish, to'plangan tajribalarni umumlashtirish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Adabiyotlarni o'rganish asosida xulosa qilish mumkinki, transformasiya jarayonini bir qancha bosqichlarga ajratish mumkin. Bunga har bir kompaniya o'z imkoniyatlari va professionallik darajasida yondashadi. Bizning fikrimizcha, har qanday bajariladigan ishni shartli ravishda uchta bosqichga ajratishimiz mumkin, masalan birinchi bosqich shu ishni amalga oshirish uchun tayyorgarlik ko'rish, keyin ikkinchi bosqichda uni amalga oshirish va so'ngi uchinchi bosqichda natijaga erishish va uni tashqi foydalanuvchilar, ya'ni investor, farz beruvchi tashkilotlar va boshqa kreditorlarga yetkazib berish bosqichlariga ajratish maqsadga muvofiq. Shu naqta nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, transformasiya jarayonini ham shartli ravishda tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish hamda natijaga erishish va uni taqdim etish bosqichlariga ajratishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish bosqichi. Ushbu bosqichda loyiha, rejalashtirish va tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. Bu bosqichda amalga oshirilgan ishlar sifati ko'p jihatdan keyingi bosqichlarning sifatli hamda transformasiya natijalarining MHXSlari talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

2. Kompaniya moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni shakllantirishda 1-son MHXS "MHXSlarini birinchi marta qo'llash" standartiga muvofiq quyidagi to'g'irlashlarni amalga oshirishi shart:

- transformasiya jarayoni prosyedurasi amalga oshirish bosqichi bo'lib, unda barcha tayyorgarlik ishlaridan keyin farqlar aniqlanadi, korrektirovka buxgalteriya yozuvlari tuziladi, ishchi transformasion jadvallar amalga oshiriladi.

3. So'ngi natijaviy bosqichda esa, korrektirovkalar amalga oshirilgandan keyin MHXSlariga muvofiq moliyaviy hisobot tuziladi va taqdim etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilishda quyidagilarni bajarishni taklif etamiz:

Birinchiidan, milliy standartlar bo'yicha tayyorlangan moliyaviy hisobot komponentlari, shuningdek, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar va boshqa hisobot moddalarining kengaytmalari aks ettirilgan analitik hisob ma'lumotlari, kerak bo'lsa boshlang'ich hujjatlarni tayyorlash lozim.

Ikkinchiidan, aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital elementlarini qayta klassifikatsiyalash, qaytadan baholash o'tkazish kerak. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda ham har bir tegishli moddani xalqaro standartlarga mos holda qayta klassifikatsiya qilish va baholash. Xuddi shuningdek, boshqa hisobot moddalarini ham birma-bir xalqaro standartlar talablariga muvofiq lashtirish choralarini ishlab chiqish kerak.

Uchinchiidan, MHXSlari darajasiga yetkazish uchun tegishli to'g'irlashlar kiritish, qo'shimcha provodkalar jadvalini ishlab chiqish kerak.

To'rtinchiidan, tegishli to'g'irlashlar buxgalteriya provodkalari yordamida kiritilgandan keyin MHXSlari talablariga muvofiq keladigan hisobotni tuzish.

Beshinchiidan, MHXSlariga o'tishda atamalardan to'g'ri foydalanish muhim rol o'ynaydi. Milliy standartlar asosida tuzilgan hisobotlardagi atamalar, ko'rsatkichlarning nomlanishi, ularning qisqarmasini xalqaro standartlarga mos keladigan atamalarga o'tkazish lozim. Agarda ko'rsatkich qayta guruhlanish va baholash asosidagi qiymati xalqaro standartlarga muvofiq kelsada uning nomlanishi muvofiq bo'lmasa, uni o'qish qiynlashadi, chalkashliklarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qarori.
2. Ainsworth, Penne. Introduction to Accounting: An integrated Approach /Penne Ainsworth, Dan Deines, R. David Plumlee, Cathy Xanthaky Larson. Irwin, Printed in USA, 2005. 425 r.
3. И.Кутер. Теория и принципы бухгалтерского учета: Учеб. Пособие.—М.: финансы и статистика, экспертное бюро, 2000.—544 с.
4. J.Qurbanbaev, S.Djumanov. Buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazish yo'llari.// Moliya. 2016 y. №1, 99-104-b.
5. Urazov K.B. Moliyaviy hisobot: milliy va xalqaro standartlar muvofiqligi yo'lida. // Bozor, pul va kredit. —2013. —№4. —57-61-b.



6. S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: Muammo va yechimlar. Monografiya. T.: "Navro'z" nashriyoti, 2016 y. 31-47-b.
7. Z.N.Qurbanov, F.A.Akramov. Moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarb masalalari. //Biznes-ekspert, № 4, 2015.
8. M.Marpatov. Buxgalteriya balansi – moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot. //Bozor, pul va kredit J. -2016.-№11.-B. 20-24.
9. www.ifrsfond.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>